

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



MUNDARIJA

Шарипов К.А., Хотамов И.С.	Основные направления развития «зелёной» энергетики в Узбекистане.....	2
Хашимов Б.А., Ахмедов Х.Д., Махкамова С.Г.	Совершенствование учета поступления и выбытия нематериальных активов по договору обмена в нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	10
Narbayev Sh.K., Sadullayev S.N.	Dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari.....	20
Nosirova N.J.	Reklama – marketing kommunikatsiyasining biznesga ta'siri.....	26
Samadov A.N.	Innovative Service Marketing: Russian Experience.....	34
Temirov A.A.	Prospects for digitalization of corporate governance in corporate structures of the Republic of Uzbekistan.....	42
Sobirov A.A.	Sanoat klasterlari – sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida.....	51
Rajabov N.R., Adilova M.T., Xasanova N.N.	Mintaqalar iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishining tashqi va ichki tahdidlari.....	60
Azlarova M.A.	Waste management activities and methods.....	71
Кадирова И.Б.	Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан.....	74
Fozilova F.K.	Importance of children's financial education and behavior	78
Фарходова Ш.Ш.	Новые тенденции развития современного менеджмента в цифровой экономике: проблемы и решения.....	83
Ostanaqulov X.M.	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston misolida.....	87
Karrieva Y.K.	Ways of development of innovative logistics in Uzbekistan	95
Masharipova Sh.A.	Transport-logistika klasterlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	100
Xudayberdiyev O'.E	Mamlakatda qoramolchilik mahsulotlari marketingini rivojlantirish yo'nalishlari.....	111
Каримов В.А.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқаришида қишлоқ хўжалиги техникаларининг аҳамияти	116
Qahhorov Sh.G'.	O'zbekiston tijorat banklarining "muammoli kreditlari"	122
Муратов Ф.Д.	Конституция: ижтимоий адолатнинг кафолати.....	125
Karimova S. T.	Konstitutsiya – ishonchli kelajak va farovon hayot Qomusi	131
Arziqulov E.A.	Konstitutsiya farovon taraqqiyotimiz garovi.....	137
Azim Davron.	Jadid matbuoti: Ismoil Gasprali va Hamza Hakimzoda.....	142
Baxanurov O. O.	Digital Currencies and Central Banks: An Analysis from a National Economic Security Perspective	148
Akbarov Sh.X.	Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korxonalarda HR menejment tizimini takomillashtirish ("O'zbekiston temir yo'llar" AJ misoolida)	155
Kodirov S.Q.	Logistika va Iqtisodiyot	160

DEHQON XO'JALIKLARIDA YERDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING O'ZGARISH TENDENSIYALARI

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich – Toshkent menejment
va iqtisodiyot instituti prorektori, PhD, dotsent
Sadullaev Sanjar Norqul o'g'li - “Toshkent irrigasiya
va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Ushbu maqolada dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarish tendensiyalari Toshkent viloyati misolida tahlillar olib borilgan bo'lib, uning natijasida amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining tibbiy me'yorlaridan kelib chiqqan holatda bir kishi uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan er maydonning normativ ko'rsakichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yerdan foydalanish, dehqon xo'jaliklari, samaradorlik, tomorqa xo'jaligi, fermer xo'jaliklari.

Аннотация. В данной статье анализируются тенденции изменения эффективности землепользования в дехканских и приусадебных хозяйствах на примере Ташкентской области, в результате чего были внесены практические предложения и рекомендаций. Разработаны нормативные показатели площади земель, необходимых для производства продуктов питания на одного человека на основе медицинских норм потребления продуктов питания населения.

Ключевые слова: землепользования, фермерские хозяйства, эффективность, приусадебные хозяйство, фермерские хозяйство.

Annotation. This article analyzes trends in changes in the efficiency of land use in dekhkan and household plots using the example of the Tashkent region, as a result of which practical proposals and recommendations were made. Standard indicators of the area of land required for food production per person have been developed based on medical standards for food consumption of the population.

Key words: land use, farms, efficiency, household plots, farms.

Kirish: Respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda aholining daromadlarini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrda «Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida»gi PQ-20-son qaroriga muvofiq, fermer xo'jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g'alladan qisqartirilgan va aholiga uzoq bo'lmagan hududlardan 2022-yilda 80 ming gektar ekin maydonlarini, 2023-2025 yillarda 120 ming gektar ekin maydonlarini aholiga ochiq elektron tanlov orqali dehqon xo'jaligi sifatida ijaraga berish belgilab berildi.

Yuqoridagi qarorga asosan ekin maydonlari fuqarolarga 30 yil mudatga suv ta'minoti yaxshi bo'lgan yerlardan - Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 0,15 gektardan 1 gektargacha, boshqa viloyatlarda 0,30 gektardan 1 gektargacha hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,30 gektardan 2 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda, kam suvli yerlardan - viloyatlarda 0,50 gektardan 1 gektargacha hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,50 gektardan 2 gektargacha o'lchamlarda dehqon xo'jaligi sifatida yuritish uchun ijaraga berilmoqda.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda Toshkent viloyati muhim o'rinni egallaydi. Viloyatning umumiy yer maydoni 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1515,0 ming gektar bo'lib, undan 391,1 ming gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent viloyatida 63,4 ming ta shaxsiy tomorqa xo'jaliklarning 52,5%, ya'ni 33,3 mingtasi dehqon xo'jaligi sifatida ro'yxatga olingan. Bu esa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklar salmoqli o'rinni egallashini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Toshkent viloyatidagi barcha toifadagi xo'jaliklar soni va yer maydonlarining tarkibining o'zgarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar		Yillar					2023 y 2019 y.ga nisbatan, %da
		2019	2020	2021	2022	2023	
Toshkent viloyatidagi xo'jaliklar soni							
f/x (ming ta)		16804,0	6813,0	6584,0	6738,0	6723,0	40
d/x va t/x (ming ta)	jami	447,6	447,6	444,0	434,2	434,2	97
	d/x	19,1	11,3	11,8	9,6	9,7	51
q/x (ming ta)		4,3	5,7	6,0	4,5	5,2	120
Toshkent viloyatidagi xo'jaliklarning ekin maydoni							
f/x (ming ga)		437,6	371,3	352,7	337,3	320,3	73
d/x va t/x (ming ga)	jami	62,3	64,5	66,3	63,4	63,4	102
	d/x	31,0	32,4	31,1	33,3	33,3	108
q/x (ming ga)		49,3	93,0	101,0	95,9	96,2	195

Tahlillarga ko'ra Toshkent viloyatida o'tkazilgan dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini rivojlantirishga

doir chora-tadbirlar bo'yicha 2023-yilda 2019-yilga nisbatan dehqon xo'jaliklari soni 3%ga yani 13,33

mingtaga kamayganini, ekin maydoni esa 1100 gektarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Undan tashqari fermer xo'jaliklar soni 10081 ming taga, ekin maydoni 117,3 ming gektarga kamaygan.

Yuqorida keltirilgan Toshkent viloyati statistik ma'lumotlarga tayanigan holda tadqiqot ob'ekt qilib olingan Ohangaron tumanidagi dehqon xo'jaliklarda monografik tadqiqotlar olib borildi. Tumanda dehqon xo'jaliklarini ishlab chiqarish sharoitlari, ulardagi mahsulot etishtirish samaradorligini o'rganish maqsadida dehqon xo'jaliklarida tadqiqot o'tkazildi. Unga ko'ra 2023-yilda tumanda 2547 ta dehqon

xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular 1343 gektar yerni egallagan (2-jadval).

Don va dukkakli ekin mahsulotlari fermer xo'jaliklarida 1,6 tonna, dehqon xo'jaliklarida esa 1,8 tonna mahsulot etishtirilgan bo'lib, kartoshka 0,2 tonna, dehqon xo'jaliklarida esa 4,4 tonna sabzavot 0,7 tonna dehqon xo'jaliklarida 10,4 tonna etishtirilgan ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish qiymatini taxlil qiladigan bo'lsak, jami ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati gektariga fermer xo'jaliklari 6175,0 ming so'mni tashkil qildi. Dehqon xo'jaliklarida esa 56500 ming so'mni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

2 - jadval

Ohangaron tumanidagi barcha toifadagi xo'jaliklar er maydonlarining tarkibining o'zgarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yillar					2023 yil 2019 yilga nisbatan, %da
	2019	2020	2021	2022	2023	
Toshkent viloyatidagi xo'jaliklarning ekin maydoni						
Fermer xo'jaligi (ming ga)	19,639	16,837	12,657	13,274	13,843	0,69
Dehqon xo'jaligi (ming ga)	1,165	1,163	0,991	1,009	1,343	1,15
Korxona xo'jaliklar (ming ga)	3,641	4,087	3,695	3,360	3,420	0,94

Quyidagi 3-jadvalda 2020-2022-yillardagi Ohangaron tumanidagi fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish holatini va etishtirilgan

mahsulotlar qiymatini tahlil qilindi va unga ko'ra bir gektar hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish miqdori qishloq xo'jaligining asosiy ekin turlari misolida tahlil o'tkazildi.

3- jadval

Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi bir gektar sug'oriladigan yerlarda fermer va dehqon xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tahlili

Xo'jalik yuritish shakllari		Sug'oriladigan yer maydoni, gektar	Bir gektar hisobiga qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish miqdori, (tonna)						Jami ishlab chiqarilgan mahsulot
			Don va dukkakli ekin mahsulotlar	Kartoshka	Sabzavotlar	Poliz	Mevalar va rezavorlar	Uzum	
Fermer xo'jaliklari	2020 yil	16837	1,8	0,1	1,0	0,1	0,2	0,01	x
	2022 yil	13274	1,6	0,2	0,7	0,1	0,03	0,01	x
Dehqon xo'jaliklari	2020 yil	991	1,1	6,2	10,3	-	2,2	0,4	x
	2022 yil	1009	1,8	4,4	10,4	0,1	2,0	0,5	x
Bir gektar hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish qiymati, (ming so'm)									
Fermer xo'jaliklari	2020 yil	16837	3600,0	250,0	3000,0	200,0	700,0	70,0	7820,0
	2022 yil	13274	3200,0	500,0	2100,0	200,0	105,0	70,0	6175,0
Dehqon xo'jaliklari	2020 yil	991	2200,0	15500,0	30900,0	-	7700,0	2800,0	59100,0
	2022 yil	1009	3600,0	11000,0	31200,0	200,0	7000,0	3500,0	56500,0

2024 yilda Toshkent viloyatida dehqon xo'jaliklar yer maydoni 33,321 ming gektarni tashkil qilmoqda va bu aholi jon boshiga 0,01 gektardan to'g'ri keladi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining tibbiy me'yorlaridan kelib

chiqqan holatda bir kishi uchun kerak bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan yer maydonning normativ ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (4-jadval).

4-jadval

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining tibbiy me'yorlari uchun zarur bo'ladigan yer maydon normativ ko'rsatkichlari

№	Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari	1 kishiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat me'yori	1 kishi uchun ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotiga to'g'ri keladigan yer maydoni
		1 yilda	1 yilda
1.	Dukakli mahsulotlar	17,2 kg	0,03 gektar
2.	Kartoshka	54,82 kg	0,002 gektar
3.	Sabzavotlar	34,63 kg	0,0003 gektar
4.	Poliz mahsulotlari	19,61 kg	0.02 gektar
5.	Meva	65,31 kg	0.008 gektar
6.	Uzum	13,92 kg	0.003 gektar
Jami		155,49 kg	0.062 gektar

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki bir yilda 1 kishiga to'g'ri keladigan asosiy oziq-ovqat me'yori 155,49 kg tashkil qilmoqda, shundan kelib chiqib 1 kishi uchun ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotiga to'g'ri keladigan yer maydoni esa 0,062 gektar tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichlarni Toshkent viloyatida misolida tahlil qiladigan bo'lsak, aholi jon boshiga 0,01 gektar yer maydoni to'g'ri kelmoqda va normativ bo'yicha 0,052 gektar yer maydoni kamligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda etakchi sifatida dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyat olib bormoqda. Shu bois, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yerlarida ishlab chiqarishni tizimli tashkil etish, yerlardan foydalanishning samarali echimlarini

ishlab chiqish, shuningdek yerdan foydalanishni tashkil etishda ilg'or texnologiyalarni va samarali usullarni joriy qilish tavsiya qilanadi.

Tadqiqotlar natijasida dehqon xo'jaliklarida samarali foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

– tahlillardan kelib chiqib dehqon xo'jaliklari uchun normativ yer maydoni eng kami 0,30 gektarni tashkil etish;

– yer maydonlariga hosildorligi yuqori bo'lgan ekin turlarini navlarini va sifatli urug'liklarini joriy etish; joylarda kompleks servis xizmati ko'rsatuvchi infratuzilmalar tashkil qilish orqali dehqon xo'jaliklarining mahsulot etishtirish bilan bog'liq muammolarini hal etishga har tomonlama yondoshuv va maslahatlar berish tizimini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot, Kadastr agentligi, 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabirdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-son qarori. <https://lex.uz/docs/5739727>
3. Xushmatov N.S. Dehqon (fermer) xo'jaliklarini tashkil etish samaradorligi va ularning boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati. T.: 1994;
4. Shodieva G.M. Oila xo'jaligi mulki va daromadini ko'paytirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati. – T.:2001;
5. Qosimov M.Ch. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida dehqon xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish masalalari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya avtoreferati. – T.: 2000.
6. Narbaev Sh.K., Sadullaev S.N. Dehqon xo'jaliklari yerlaridan samarali foydalanishning ahamiyati. XXII- yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-pedagog anjuman maqolalar to'plami. 2023 yil 12-13 may. 197-201 betlar

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2024. 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114